

**TARBIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING ONGIDA
VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH****Samadqulova Ra'no Saidmurod qizi****Termiz davlat pedagogika institute "Pedagogika"yo'nalishi talabasi
+998992536106**

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya fani darslarida o'quvchilarning ongida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning mazmuni, ahamiyati, pedagogik asoslari hamda samarali metod va vositalari yoritilgan. Shuningdek, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning dolzarbligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: kreativ, kompetensiya, ta'lim-tarbiya, kreativ xarakter, pedagogik texnologiyalar, ijodkorlik, metodlar, milliy qadriyatlar, tarbiya, vatanparvarlik.

**FORMING THE FEELING OF PATRIOTISM IN STUDENTS MINDS DURING
TARBIYA [EDUCATION] SUBJECT CLASSES.**

Samadqulova Ra'no saidmurod qizi

Termez State Pedagogical Institute

Student of the "Pedagogy" major

Tel: +998992536106

Abstract: This article covers the content, significance, pedagogical foundations, and effective methods and tools for forming the feeling of patriotism in students' minds during tarbiya subject classes. The relevance of educating the young generation in the spirit of respect for national values is also analyzed.

Keywords: creative, competence, education, creative character, pedagogical technologies, creativity, methods, national values, education, patriotism.

**ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА В СОЗНАНИИ
УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ПРЕДМЕТА ВОСПИТАНИЯ**Самадқулова Раъно Саидмурод Термизского государственного педагогический
института

Направления «Педагогика»

Тел.: +998992536106

Аннотация: Аннотация: В данной статье освещаются содержание, значение, педагогические основы, а также эффективные методы и средства формирования чувства патриотизма в сознании учащихся на уроках предмета воспитания. Также анализируется актуальность воспитания молодого поколения в духе уважения к национальным ценностям.



Ключевые слова: креативность, компетенция, образование, креативный характер, педагогические технологии, творчество, методы, национальные ценности, воспитание, патриотизм.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, davlat mustaqilligi va xalq farovonligi yoshlarning Vatanga bo'lgan muhabbatiga bevosita bog'liqdir. Shu bois umumta'lim maktablarida o'qitiladigan tarbiya fani o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Vatanparvarlik – bu shunchaki Vatanga muhabbat emas, balki uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, milliy qadriyatlarni asrash va yurt tinchligini himoya qilishga tayyorlikdir. Har qanday jamiyatning kelajagi yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyati yuksak darajada shakllangan, kreativ fikray oladigan zamonaviy bilimlardan xabardor zamon bilan hamnafas yoshlarga har tomonlama bog'liqdir. Yurtning kelajagini o'ylaydigan vatan uchun jonni fido aylaydigan qonida buyuk ajdodlarimiz qoni jo'shib turgan millatni kelajagini har narsadan ustun qo'yadigan yoshlarimizga bog'liq vatanni ertasi va kelajagi. Mustaqil yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama barkamol, yurtiga sadoqatli, bilim va fidoyi etib tarbiyalashga qaratilgan tizimli ishlar mamlakatimizda keng miqyosda olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq og'zaki ijodi kabi milliy pedagogik manbalardan foydalanish zamonaviy didaktik yondashuvlarda yangicha talqin etilmoqda. Bunday materiallar o'quvchilarning tasavvurini boyitadi, ijodiy izlanishlariga turtki beradi hamda milliy qadriyatlarga asoslangan ta'limni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda, eng avvalo, ona vatanga bo'lgan muhabbat, uni sevish, uni e'zozlash, har bir insonning o'z joniga qasd qilishga o'rgatishda adabiy asar qahramonlari, tarixiy shaxslar, Vatan qahramonlari eng yorqin namunadir. Shuningdek, o'zbek xalqining madaniy merosi hisoblangan san'at, tarixiy va me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylash, ularning tarixi va bugungi kundagi ahamiyatini bilish zarur. O'qituvchi va o'qituvchilarni o'z millatiga, ona Vatanga, yurtiga sadoqatli bo'lishga, ularda sog'lom kuch-quvvat, tafakkur, iymon - e'tiqod va pok vijdonni shakllantirish, millat manfaati yo'lida yashash, Vatan oldidagi ma'suliyatini tarbiyalash, o'z ongiga singdirish, har tomonlama sog'lom turmush tarzini shakllantirishga o'rgatishi kerak. Bugungi yurt taraqqiyotida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishning ilmiy-



nazariy pedagogik asoslar alohida ahamiyatiga ega bo'lib, yoshlarni o'qitishda yangi imkoniyatlar qo'lga kiritilmoqda.

“Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyadga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qzysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. Darhaqiqat, yuksal ma'naviyatli avlod, albatta, imkoniyat va sharoit yaratib beradigan davlatda kamol topadi. Yurtimizda zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikrlariga ega bo'lgan o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim masaladir va yoshlarga oid davlat siyosatining eng ustuvor pog'onasida, balki zamon talab qiladigan yuksak darajadadir. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligini yanada kuchaytirish maqsadida “Sharqona qarashlardagi ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi”, deb ta'kidladi. Demak, bugungi professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashar ekan, ular o'z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi.

Kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda shaxsning o'zaro mos ravishda bajarilgan kreativ faoliyati va ijodiy mahsulotlarni ajratish borasidagi rivojlanish sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning tezligi va kengligi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va ijodiy qobiliyatlari, shuningdek, mavjud sharoitlar, hayotiy muhit va kasbiy rivojlanish jarayonlariga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy sharoitda kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodida pedagogning kreativ sifatlarga ega bo'lishini taqozo qiladi.

Vatanparvarlik – bu insonning o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, sadoqati, uni asrab-avaylashga intilishi va ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatishidir. Ushbu tuyg'u quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi: ona yurtga hurmat va muhabbat; milliy qadriyat va an'analarga sadoqat; davlat ramzlariga ehtirom; jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi; tinchlik va osoyishtalikni qadrlash.

Tarbiya fani ana shu fazilatlarni o'quvchilarga singdirishning samarali vositasidir. Tarbiya fanining vatanparvarlikni shakllantirishdagi o'rni. Tarbiya fanining asosiy maqsadi – barkamol, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashdir. Bu fan orqali o'quvchilar: milliy tarix va meros bilan tanishadilar; buyuk ajdodlar hayotidan ibrat oladilar; davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalanadilar; fuqarolik burchi va mas'uliyatini anglaydilar. Natijada ularda Vatanga sadoqat, milliy g'urur va faxr tuyg'ulari shakllanadi. Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish metodlari



Learning and Sustainable Innovation

Tarbiya darslarida quyidagi pedagogik metodlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi: 1. Suhbat va munozara metodi. O'quvchilar bilan "Vatan nima?", "Yurt ravnaqi uchun mening hissam" kabi mavzularda suhbatlar tashkil etish ularning fikrlash doirasini kengaytiradi. 2. Namuna metodi

Buyuk ajdodlarimiz – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy shaxslar hayotini o'rganish yoshlarni jasorat va fidoyilikka undaydi. 3. Interfaol metodlar

"Aqliy hujum"

"Klaster"

"Baliq skeleti"

"Rol o'ynash"

"Debat"

Ushbu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

4. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar

"Vatan himoyachilari kuni"ga bag'ishlangan tadbirlar;
davlat madhiyasi va bayrog'iga bag'ishlangan darslar;
muzey va tarixiy obidalarga sayohatlar.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Multimedia vositalari, videoroliklar va taqdimotlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy va ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlikni o'rnatishi, o'quv jarayonida xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng qo'llash, talabalar va ilmiy-pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish hozirgi kunda muhim masalalardan biri. Bu masala O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish" kabi asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Shunga muvofiq bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda orqali kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik



ta'minotini yaratish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyat sohasiga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda o'qitish metodikasi ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli metodlar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlik-shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi.

Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiya qamrab oladi. Shaxs kreativligi uning fikrlashida, muloqotida, his-tuyg'ularida va amalga oshirayotgan faoliyatlarida o'z ifodasini topadi. Kreativlik shaxsni umumiy tarzda yoki uning alohida xususiyatlarini ta'riflashda namoyon bo'ladi. Shuningdek, kreativ iqtidor muhim bir omil sifatida ajralib turadi va zehni o'tkirlikni shakllantiradi.

Vatanparvarlik tuyg'usi har bir yosh fuqaroning qalbida ulg'ayib borishi, shakllanishi va mustahkamlanishi zarur bo'lgan eng muhim ahloqiy fazilatlardan biridir. Bugungi globallashuv va axborot xuruji kuchayib borayotgan davirda bolalar ongida Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, yurt taqdiriga daxldorlik hissini tarbiyalash har qachongidan ko'ra dolzarb hisoblanadi. Maktabda o'zligini anglagan, milliy g'urur bilan yashaydigan, ajdodlar merosini e'zozlaydigan, yurtni chin dildan sevib, uni himoya qilishga tayyor bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash - bu har bir pedagogning sharafligi va ma'suliyatli burchidir. Tarbiya fani orqali yosh avlod milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanib, Vatan ravnaqi yo'lida ma'suliyatli va fidoyi insonlar bo'lib voyaga yetadi. Shu bois ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va milliy an'analarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, A. M. (2024). THE ROLE OF UZBEK FOLKLORE GENRES IN SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION. International Journal of Advance Scientific Research, 4(03), 226-231.
2. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, A. M. (2023). UZBEK PEOPLE ORAL CREATIVITY TOOLS UZBEK PEOPLE IN PEDAGOGY HELD PLACE. World Bulletin of Social Sciences, 27, 96-98.
3. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, A. M. (2024, December). IMPORTANCE OF USING NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR TEACHING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON FOLKLORE. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 5-9).
4. M.A.M.A.Abduraximova Muxabbat Allayevna (2024). MILLIY TARBIYA XALQ



OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING ASOSI SIFATIDA. Research Focus, 3 (11), 51-54. doi: 10.5281/zenodo.14317451

5. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, A. M. (2023). DEVELOPMENT OF USE OF FOLK ORAL CREATION TOOLS IN SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF FUTURE TEACHERS. Academia Repository, 4(12), 15-17.

6. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, M. A. (2022). Factors that shape our national pride in the minds of students in extracurricular reading classes in the primary grades.

7. Abduraximova.M.A. Xalq pedagogikasi -Termiz,2025

8. Abduraximova.M.A. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ faoliyatini xalq og‘zaki ijodidan foydalanib o‘qitish uchun ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy metodik qo‘llanma va tavsiyalar. – Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2024. –28 b.